



Bakayeva Mexriniso Izatovna
Osiyo Xalqaro Universiteti

FIZIKA FANINI O'QITISHDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL QILISH YO'LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqil ta'lismi, ta'lismi jarayonida talabalar bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, fizika fani bo'yicha mustaqil ta'lismi tashkil qilish, talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar, mustaqil ta'lidan asosiy maqsadlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lismi, mustaqil ish, o'quv-uslubiy materiallar, laboratoriya mashg'uloti, mustaqil ta'lidan asosiy maqsadlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается самостоятельное обучение и необходимые условия для самостоятельного приобретения студентами знаний в учебном процессе, организация самостоятельного обучения по физике, формирование компетентности студентов в организации самостоятельной работы, а также основные цели самостоятельного образования.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, учебно-методические материалы, лабораторные занятия, основные цели самостоятельного обучения.

Abstract: This article discusses independent learning and the necessary conditions for students' independent acquisition of knowledge in the educational process, the organization of independent learning in physics, the formation of students' competence in organizing independent work, as well as the main goals of independent education.

Keywords: independent learning, independent work, teaching materials, laboratory classes, the main goals of independent learning.

KIRISH.

Hozirgi zamonda mutaxassislari amaliy kasbiy faoliyatlar uchun zarur bo'lgan chuqur va keng ko'lamdagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlaridan tashkari mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish qobiliyatlariga, faol hayotiy pozitsiyalarga ega har tomonlama yetuk bo'lishlari talab etiladi. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantir ish katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan talabalar mustaqil ishlarni zamonaviy ta'lismi talablari asosida tashkil qilish, talabalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning yangi bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishlarini orttirish ta'lismi sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lismi tizimida olib borilayotgan islohotlar respublikamiz ravnaqiga ijobjiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lismi standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lismi muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lismi tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lismi olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiyasi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Ta'limga sifatni va unumidorlikni oshirishda "O'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lismi olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish" vazifasi ustivor hisoblanadi. Fizika fanida mustaqil ta'lismi tashkil etish dars vaqta va darsdan tashqari vaqtini o'zaro bog'lash, Fizika fanini o'qitishda uzviylik va mutanosiblikni taminlash, mustaqil ta'lismi sifatini va savyasini yuksaklarga ko'tarishda muhumdir[3].

ASOSIY QISM.

Mustaqil ta'lismi - o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikmasi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.



Mustaqil ish - o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Ta'lif jarayonida talabalar bilimlarni mustaqil ravishda egallashga o'rghanishlari kerak, chunki ular uchun aynan shu yo'l bilan olingan bilimlar nisbatan mustahkamroq bo'ladi. Hayotiy tajriba va pedagogik kuzatishlar oxirgi yillarda boshlang'ich bosqich talabalarida mustaqil faoliyat va ishslash ko'nikmalarining etishmasligini ko'rsatmoqda.

Ikkinci tomondan, masalan fizika fani bo'yicha o'quv materiallarining hajmi ikki baravar oshdi, ularni o'rghanish uchun zarur vaqt esa deyarli shunchaga qisqardi. Shu munosabat bilan talabalarning mustaqil ishlari uchun ajratiladigan vaqt ko'paytirildi. Shu nuqtai nazardan talabalarni mustaqil faoliyat va ishlarga o'rgatish, ularning mustaqil ishlarini ratsional va to'g'ri tashkil qilish pedagog xodimlardan bu masalaga jiddiy va ijodiy yondashishlarini taqozo qildi.

Pedagogik tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tashkil qilingan faol mustaqil faoliyatgina bo'lajak mutaxassis shaxsi va kasbiy mahoratining rivojiga sharoit yaratadi va yordam beradi. Chunki talabalar mustaqil ishlarni bajarganlarida har tomonlama erkin bo'ladilar, topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaqt, vaziyat, kerakli vositalarni o'zлari tanlash va bajargan ishlarini o'zлari nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda quyidagi omillarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarning mustaqil ishlari o'qituvchining doimiy rahbarligi ostida olib borilishi lozim. Bunda o'qituvchi o'z maslahatlari bilan kerakli yo'llanmalar, ko'rsatmalar berib boradi. Mustaqil ishslash uchun kerakli o'quv - uslubiy materialarning va ulardan foydalanish imkoniyatlarining mayjudligini taminlash zarur. Bu materiallar yozma yoki elektron versiya shakllarida bo'lishi mumkin. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Fizikani o'qitishda mustaqil ish o'z-o'zidan maqsad hisoblanmaydi. Bu bilimlarni tashqi tomondan talabaning ichki mulkiga o'tkazish, bu bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ularning o'zlashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarurdir. Mustaqil ish ham o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqilligi va bilish faolligini tarbiyalash va o'quv-tarbiyaviy ishlarda ko'nikmalarni singdirishning zarur shartidir [1].

Hozirgi zamon fizika ta'limida talabalarning mustaqil ishlari o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Fizika fani bo'yicha tashkil qilinadigan mustaqil ishlar ayrim jihatlari bilan ajralib turadi. Chunki mustaqil ishlar mashg'ulotlarning barcha turlari, ya'ni, ma'ruza, amaliy masala yechish va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha olib borilishi kerak. Zamonaviy fizika fani juda tez rivojlanib, ilmiy malumotlar va egallanishi lozim bo'lgan yangi bilimlar hajmi keskin oshib bormoqda. Fan yangiliklarining o'quv dasturlari va qo'llanmalarida yoritilishi esa aksincha, orqada qolmoqda. Shunday sharoitda mustaqil ishlarning ahamiyati yanada ortadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ish mavzularini tanlashda o'quv dasturiga kiritilgan an'anaviy mavzulardan tashqari iqtidorli va o'z bilimlarini kengaytirishni xoxlagan talabalar uchun fizika fanining hozirgi zamon muammo va yutuqlariga bag'ishlangan mavzularni ham ro'yxatga kirtsia bo'ladi. Mustaqil ish sifatida zamonaviy fizika muammolarini o'zida aks ettiradigan mavzularni talabalar e'tiboriga havola qilish mumkin. Masalan, nochizqli muhitlardagi to'lqin jarayonlari, solitonlar, to'qqizinchli val, har xil muxitlardagi turbulentlik jarayonlar, suyuqliklardagi, atmosferadagi va quyosh plazmasidagi turbulent oqimlar, muvozanatdan yiroq dinamik tizimlar, dissipativ tizimlardagi o'z-o'zidan tashkillanish hodisalari, atomlarning klaster holati, uglerod nanonaychalari, fullerenlar va ularning amalda qo'llanish istiqbollari, yarim o'tkazgichli nanostrukturalar, kvant nuqtalar, iplar va o'ralar, kvant Xoll effekti, butun va kasr sonli Xoll effekti, ikki o'lchovli elektron tizimlar, makroskopik kvant effektlari, o'ta oquvchanlik, kvant informatikasi, kvant kompyuterlari, kvant kriptografiyasi va teleportatsiyasi, fundamental o'zaro tasirlar, maydonning umumiy nazariyasi, olam evolyusiyasi, katta portlash, kengayib borayotgan Olam modeli, qoldiq nurlanishlar, yulduzlar evolyusiyasi, oq karliklar, neytron yulduzlar, pulsarlar, qora tuyniklar, hayot



va tafakkur paydo bo'lishini hozirgi zamon fizika fani tasavvurlari asosida izohlash va boshqalar shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga ega bo'lish lozim:

-talabalarning mustaqil ishlashga tayyorgarligi;

-egallagan bilimlar motivatsiyasi va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini egallashi; -barcha kerakli o'quv metodik qo'llanmalar va ma'lumotlarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

-mustaqil ishlarni bajarilganligini muntazam nazorat qilib boruvchi tizimning mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi[2].

Mustaqil ishlarni talabalar referat yoki ilmiy ma'ruza ko'rinishida tayyorlashlari va bu ishlarni maxsus tashkil qilingan kichik ilmiy seminar yoki anjumanlarda ma'ruza qilishlari mumkin. Bu tadbirlar talabalarda ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Agar tanlangan mavzu keng ko'lamdag'i muammo va masalalarni qamrab olsa, ushbu mavzuga tegishli mustaqil ishlarni talabalar kichik guruhlarda jamoa bo'lib bajarishlari va ularni taqdimot (prezentatsiya) ko'rinishida topshirishlari ham mumkin. Bu holda mustaqil ish haqiqiy ijodiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ishni bajarishda interfaol muhit yuzaga keladi. Muhokama natijasida talabalar o'z nuqtai nazarini ochiq bayon qilish, bahs-munozara o'zaro fikr almashish vositasi orqali yangi ma'lumot va bilimlar bilan bir-birlarini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladir.

O'quvchilarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limi tashkil etish uzlusiz va uzviy amalga oshirilmog'i lozim. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijaga erishish ta'lim jarayonida, xususan ma'ruza va amaliy ijodiy mashg'ulotlarida o'quvchilarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosilqilish, o'quv axborotlarni sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o'qish asosida kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi [6].

Masala yechish mashg'ulotlarida talabalar mustaqil ishlarni auditoriyada va uyda bajaradigan mustaqil ishlarga ajratiladi. Masala yechish nazariy bilimlarni mustahkamlashda eng samarali usul hisoblanadi. Shuning uchun masala echish darslarida talabalar faolligi muhim ahamiyatga ega. Agar masalani o'qituvchi yoki biror yaxshi o'zlashtiradigan talaba yozuv taxtasida echsa ko'pchilik talabalar "passiv"(faol bo'limgan) kuzatuvchi holatida bo'ladir. Talabalarни faollashtirish uchun kerakli mavzuga bag'ishlangan va oldindan har bir talaba uchun tayyorlangan bir necha masalalardan iborat tarqatma material variantlaridan foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab o'qituvchi mavzuga bag'ishlangan umumiyo ko'rsatmalarni qisqacha bayon qilib, bir necha masalalarni namuna sifatida ehib ko'rsatadi. Qolgan vaqtda esa talabalarga mustaqil ish variantlari tarqatiladi. Talabalar "faol ish" holatiga o'tadilar. Variantlar talabalar echa olishlari mumkin bo'lgan engilroq masalalardan va yuqoriroq ballarga da'vogar talabalarga mo'ljallangan va fikrlashni talab qiladigan nisbatan qiyinroq masalalardan tuzilgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada talabalarning bandligi ta'minlanadi. Ularda o'qituvchiga savol bilan murojat qilish zarurati paydo bo'ladi. O'qituvchi savollarga javob berib talabalarning mustaqil ishlarni boshqarib va nazorat qilib turadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning ko'proq mustaqil ishslashlari uchun vaziyat va sharoit yaratilsa olingan natijalarni mustaqil ravishda tahlil va mulohaza qilish va ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini anglash qobiliyatları rivojlantirilsa ularda olgan bilimlarini amaliyatga mustaqil qo'llash ko'nikmalari tezroq shakllanadi.

Avvalo, talaba bajarayotgan mustaqil ish o'qituvchisi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdag'i muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur. Mustaqil ta'lif o'quvchilarning kelajakdag'i muvaffaqiyatlarini ta'minlashning asosiy omilini, mazmun mohiyatini, maqsadini ongli ravishda tushunishlari, shuningdek, olingan bilimlar natijasi uchun mas'uliyatni anglashlari uchun zarurdir [8]. Mustaqil ta'lifda inson bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallaydi va o'zi ta'lif jarayonini nazorat qiladi. Bunda talabalarga o'zlarining noyob ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslublariga mos ravishda ta'lif yo'llarini moslashtirishga imkon beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv



o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Mustaqil ta'limga o'rganish motivatsiyasi insonning o'zidan keladi. Talabalar o'zlarining ta'limga yo'llarini egallab olishadi, bu esa o'zlarining o'sishi uchun mas'uliyat va sadoqatni chuqurroq his qilishga olib keladi. O'qish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish o'ziga ishonch va mas'uliyat hissini oshiradi. Talabalar o'zlarining muvaffaqiyatlari va yutuqlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar, bu esa ijobjiy va faol fikrlashni rivojlantiradi. Mustaqil ta'limga o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan bir qatorda o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Talabarning mustaqil ta'limididan asosiy maqsad quyidagilardan iboratdir:



XULOSA.

Mustaqil ta'limga deganda, belgilangan topshiriqlarni talabalar tomonidan ijodiy hamda mustaqil bajarishga mo'ljallangan o'quv faoliyatini tushunish kerak. Mustaqil ta'limga negizini ta'limga oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlari o'quv-bilish faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining shakl-usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasи sifatida namoyon bo'ladi [7].

Mustaqil ta'limga – o'quv jarayoni mashg'ulotlarida talabarning shaxsiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalar bilimining sifati ularning mustaqil ishlashiga bevosita bog'liq. Mustaqil ta'limga bilan shug'ullanganda talaba mustaqil ravishda yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganish tashabbusini o'z zimmasiga oladi. Mustaqil ta'limga turli shakllari: onlayn kurslar, seminarlar va konferensiyalarda qatnashish yoki kitob va maqolalarni o'qish talabidan intizom va o'z-o'zini rag'batlantirishni talab qiladi. O'qishni nazorat qilish talabaning to'liq salohiyatini ochib beradi va shaxsiy va professional maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtaram Boboqulova Xamroyevna. (2024). THERMODYNAMICS OF LIVING SYSTEMS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 303–308.



2. Muxtaram Boboqulova Xamroyevna. (2024). QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH . TADQIQOTLAR.UZ, 34(2), 213–220.
3. Xamroyevna, M. B. (2024). Klassik fizika rivojlanishida kvant fizikasining orni. Ta'larning zamonaviy transformatsiyasi, 6(1), 9-19.
4. Xamroyevna, M. B. (2024). ELEKTRON MIKROSKOPIYA USULLARINI TIBBIYOTDA AHAMIYATI. PEDAGOG, 7(4), 273-280.
5. Boboqulova, M. X. (2024). FIZIKANING ISTIQBOLLI TADQIQOTLARI. PEDAGOG, 7(5), 277-283.23.Xamroyevna, M. B. (2024). RADIATSION URLARNING INSON ORGANIZMIGA TASIRI. PEDAGOG, 7(6), 114-125.
6. Бобокурова Мухтарам. (2024). Альтернативные источники энергии и их использование. Междисциплинарный журнал науки и техники, 2 (9), 282-291.
7. Usmonov Firdavs. (2024). MINERAL ENRICHMENT PROCESSES. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(9), 250–260
8. Jalilov, R., Latipov, S., Aslonov, Q., Choriyev, A., & Maxbuba, C. (2021, January). To the question of the development of servers of real-time management systems of electrical engineering complexes on the basis of modern automation systems. In CEUR Workshop Proceedings (Vol. 2843).
9. Otajonova Sitorabonu. (2024). ПРИМЕНЕНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ТРИГОНОМЕТРИИ При РЕШЕНИИ ТРЕУГОЛЬНИКОВ. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(9), 292–304.
10. To'raqulovich, M. O. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(6), 63-74.
11. Muradov, O. (2024, January). IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES REQUIREMENTS. In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 97-102).
12. To'raqulovich, M. O. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIMNING INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(5), 627-635.
13. To'raqulovich, M. O. (2024). IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF IT AND INFORMATION TECHNOLOGIES BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 851-859.
14. Murodov, O. (2024). DEVELOPMENT AND INSTALLATION OF AN AUTOMATIC TEMPERATURE CONTROL SYSTEM IN ROOMS. Solution of social problems in management and economy, 3(2), 91-94.
15. Вакаева Мехринисо. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ИХ ПРЕИМУЩЕСТВА. Многопрофильный журнал науки и технологий, 2(9), 174–183.
16. Djuraevich, A. J. (2021). Zamonaviy ta'llim muhitida raqamlı pedagogikaning o'rni va ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 103-107.
17. Ashurov, J. D. (2024). TA'LIM JARAYONIDA SUN'YIY INTELEKTNI QO'LLASHNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 7(5), 698-704.
18. Djo'rayevich, A. J. (2024). THE IMPORTANCE OF USING THE PEDAGOGICAL METHOD OF THE " INSERT" STRATEGY IN INFORMATION TECHNOLOGY PRACTICAL EXERCISES. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 425-432.
19. Ashurov, J. D. (2024). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH FANINI O 'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVGA ASOSLANGAN METODLARNING AHAMIYATI. Zamonaviy fan va ta'llim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 2(1), 72-78.